Materiallar to'plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA'LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Yoshga oid diskurs nazariyasining shakllanishi: yondashuvlar paradigmasi

Ruzixon Usmanovna Axrorova*

Farg'ona davlat universiteti

✉ axrorova.prof@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda yoshga oid diskurs nazariyasining shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari tadqiq etiladi. Yoshni nutqiy va diskursiv faoliyatning muhim omili sifatida o'rganishga asos bo'lgan asosiy ilmiy yondashuvlar va paradigmalarga alohida e'tibor qaratiladi. Yoshga oid diskursni tadqiq etishda lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik yondashuvlarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh, nutqiy xulq-atvor, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy tajriba va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritiladi. Turli yosh guruhlariga xos diskursning lingvistik xususiyatlarini aniqlashda antropotsentrik va fanlararo paradigmalarning ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari yoshga oid diskursning biologik, ijtimoiy, kognitiv, madaniy va kommunikativ omillarning o'zaro ta'siri asosida shakllanuvchi ko'p qirrali lingvistik hodisa ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvlar yoshga oid diskursni nazariy jihatdan tizimlashtirish va turli yosh guruhlari nutqini qiyosiy o'rganish uchun metodologik asos yaratadi.

Kalit so'zlar

yoshga oid diskurs, diskurs nazariyasi, yosh omili, lingvistik yondashuv, sotsiolingvistik yondashuv, psixolingvistik yondashuv, kognitiv yondashuv, kommunikativ-pragmatik yondashuv, lingvokulturologik yondashuv, antropotsentrik paradigma, nutqiy xulq-atvor, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy tajriba, kognitiv jarayonlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23277857

Kirish

Nutq diskurslarini tizimli o'rganish, uning barcha nutqiy ichki imkoniyatlarini ochib berish, shuningdek, funksional-uslubiy xususiyatlarini tavsiflash zamonaviy tilshunoslikning eng muhim va dolzarb vazifalaridandir. Jahon tilshunosligida diskursning mohiyati, uning ijtimoiy-tarixiy omillar bilan belgilanish masalalariga bag'ishlangan ko'plab olimlarning qarashlari mavjud. Jumladan, D.Schiffrin, J.Bruner, G.Brown, T.A. van Dijk, N.Faircloug, J.P.Gee, J.Ostman, P.Shirer kabi olimlar diskursni nutq amaliyoti sifatida o'rganib, unda ijtimoiy identifikatsiya va kognitiv jarayonlarning roliga e'tibor qaratganlar.

Diskurs tahlilining asosiy yo'nalishlari J.M.Adam, P.Charaudeau, D.Maingueneau, J.Authier-Revuz kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Diskurs nazariyasi va diskurs tahlili bo'yicha N.D.Arutyunova , V.G.Borbotko, V.I.Karasik, R.Vodak, K.F.Sedov, Ye.V.Mixaylov, Yu.S.Stepanov, N.N.Mironova, M.L.Makarov, G.N.Manayenko, T.V.Milevskaya, Yu.Ye.Proxorov, A.N.Prixodko, V.Z.Demyankov, Y.I.Sheygal kabi olimlar sermahsul tadqiqotlar olib borganlar.

O'zbek tilshunoslarida Sh.Safarov diskursning lingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, o'zbek tilida diskursiv markerlar (diskursning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi birliklar, L.Raupova dialogik diskursning sotsio-pragmatik xususiyatlarini, G.Odilova xususiy diskurslarning lingvomadaniy talqinini o'rgangan. G.L.Babayeva o'zbek tilida tibbiy diskursni, F.Qosimova ingliz tilida tibbiy terminologik tizimni, Sh.Bobojonova tib-

biy diskursning lingvistik xususiyatlarini, M.Ergashev, N.Sayfullayev, N.Fayziyeva, O‘.Shukurovlar B.Ollobergan ovalar tomonidan siyosiy diskursni, N.I.Xursanov o‘zbek va ingliz tillari misolida dramatik diskursda verbal va noverbal komponentlar munosabatini, I.F.Porubay axborot texnologiyalariga oid diskursni, M.M.Asronova esa o‘zbek va ingliz tillarida xususiy diskurs individualligini ta’minlovchi lisoniy vositalarni lingvistik tadqiq qilganlar. Biroq, shunga qaramay, turli yosh davrlariga xos nutq diskurslarining lingvopragmatik, kognitiv va ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari hozirgacha tizimli tarzda tadqiq etilmagan.

Metodlar

Tadqiqot yoshga oid diskurs nazariyasining shakllanishi va unga asos bo‘lgan ilmiy yondashuvlarni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi antropotsentrik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik va sotsiolingvistik tamoyillar uyg‘unligiga asoslandi. Yosh omilining nutqiy faoliyatdagi o‘rnini aniqlashda fanlararo yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini diskurs nazariyasi, yoshga oid lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va lingvokulturologiya doirasida shakllangan ilmiy qarashlar tashkil etdi. Yoshga oid diskurs tushunchasining ilmiy talqinlarini aniqlash maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari hamda dissertatsiya tadqiqotlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda, avvalo, **tavsifiy metod** qo‘llanilib, yoshga oid diskursning asosiy belgilari, tushunchaviy mazmuni va ilmiy talqinlari tavsiflandi. Mazkur metod orqali turli ilmiy maktab va yo‘nalishlarda yosh omiliga berilgan tavsiflar tizimlashtirildi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida yoshga oid diskursni o‘rganishga doir lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv va kommunikativ-pragmatik yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Ushbu metod turli nazariy qarashlarning metodologik xususiyatlarini o‘zaro qiyoslash imkonini berdi.

Konseptual tahlil metodi orqali “yosh”, “yosh omili”, “yoshga oid diskurs”, “nutqiy xulq-atvor”, “kommunikativ kompetensiya” kabi asosiy ilmiy tushunchalarning mazmuniy tarkibi ochib berildi. Tushunchalar o‘rtasidagi semantik va nazariy munosabatlar aniqlashtirildi.

Klassifikatsiya metodi asosida yoshga oid diskursni o‘rganishda mavjud bo‘lgan ilmiy yondashuvlar asosiy mezonlar bo‘yicha guruhlashtirildi. Jumladan, lingvistik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik yondashuvlar alohida metodologik yo‘nalish sifatida ajratildi.

Diskursiv tahlil yosh omilining nutqiy faoliyat, kommunikativ xulq-atvor va diskursiv strategiyalarda namoyon bo‘lishini aniqlash uchun qo‘llanildi. Bunda yosh, ijtimoiy tajriba, kommunikativ vaziyat va nutqiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratildi.

Kognitiv tahlil orqali yosh kategoriyasining inson idroki, xotirasi, tajribasi, konseptualizatsiyasi va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq jihatlari o‘rganildi. Mazkur metod yoshga oid diskursning shakllanishida kognitiv omillarning o‘rnini belgilash imkonini berdi.

Pragmatik tahlil yordamida yoshga oid diskursda kommunikativ maqsad, kommunikativ strategiya va taktikalar, nutqiy niyat hamda kommunikativ vaziyatning roli aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida **sistemali yondashuv** asosida yoshga oid diskurs biologik yosh ko‘rsatkichi bilangina chegaralanmaydigan, balki ijtimoiy, kognitiv, kommunikativ va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab lingvistik hodisa sifatida talqin qilindi.

Shunday qilib, qo‘llanilgan metodlar majmuasi yoshga oid diskurs nazariyasining shakllanish bosqichlarini, uning metodologik asoslarini hamda turli ilmiy paradigmalardagi talqinlarini kompleks ravishda o‘rganish imkonini berdi.

Natijalar

“Diskurs” atamasining yagona va umumiy qabul qilingan ta’rifi mavjud emas, bu esa uni ilmiy doiralarda hanuzgacha ochiq va bahsli masala sifatida saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. “Diskurs” atamasining etimologiyasi borasida ikkita asosiy nazariya mavjud: birinchisi – uning lotin tilidan, ikkinchisi – fransuz tilidan kelib chiqqanini bildiradi. Shu bilan birga, lotincha etimologiyasining o‘zida ham bir nechta turlicha talqinlar mavjud. Masalan, “Epistemologiya va ilmiy falsafa ensiklopediyasi”da keltirilishicha, “*diskurs*” ata-

masi lotin tilidagi "discurrere" so'zidan olingan bo'lib, u "*muhokama qilish*", "*muzokara*", hattoki "*bahs*" degan ma'nolarni anglatadi. Boshqa ba'zi lug'atlarda esa bu atama "discere" so'zidan kelib chiqqan deb ko'rsatilgan, bu so'z rus tilida "*sayr qilish*", "*a'zo bo'lmasdan harakat qilish*" kabi ma'nolarga ega. Shuningdek, lug'atlarning bir qismida "*diskurs*" termini lotin tilidagi "discoursus" so'zidan kelib chiqqan deb aytiladi; bu so'z "*suhbat*", "*dalil*", "*muloqot*" ma'nolarini bildiradi.

Qayd etish joizki, bir lug'atning o'zida bir nechta yuqoridagi talqinlar bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan so'zlar o'rtasida, tabiiyki, ma'lum farqlar mavjud bo'lib, ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga lotin tilidagi "discurrere" va "discoursus" otlari kiradi, ular o'zaro ma'nodosh hisoblanadi. Bu ikki so'z o'rtasidagi farq uslubiy tafovutga bog'liq: birinchi so'z ko'proq rasmiy tusga ega. Ikkinchi guruh esa lotincha "discere" fe'lini o'z ichiga oladi. Bu so'z rus tilidagi "*блуждать*" (ovora bo'lmoq, maqsadsiz kezmoq) so'ziga yaqin semantik ma'noga ega.

So'zning asosiy (to'g'ridan-to'g'ri) ma'nosi – "*sekin yurmoq, harakatlanmoq*", ko'chma ma'nosi esa "*yo'nalishni o'zgartirish, bir fikrdan boshqasiga o'tish, diqqatni jamlamaslik, hech bir joyda to'xtamaslik*" (fikr yoki nigohga nisbatan). Masalan,"*fikrlar adashadi*" iborasida bo'lgani kabi.

"Diskurs" atamasining etimologiyasiga oid yana bir keng tarqalgan nuqtayi nazarga ko'ra, bu atama fransuz tilidagi "discours" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "*nutq*", "*so'zlashuv*" degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, bu nuqtayi nazarga ko'ra, "*diskurs*" atamasi o'zlashtirilishi va ishlatilishi jarayonida dastlab "*fikrlarning o'zgarishi*" ma'nosini olgan bo'lishi mumkin, so'ngra esa "*nutq faoliyati*" semantikasiga yaqinlashgan. Uning o'rganilishida turli jihatlarga e'tibor qaratiladi: ketma-ketlik va vaziyatga moslik, shaxsiylik, shuningdek, etnoijtimoiy-madaniy xususiyatlar. Shu munosabat bilan diskursni tahlil qilishda so'zlovchining ijtimoiy holati va lisoniy manzarasi hisobga olinishi lozim. Diskurs ko'p ma'noli hodisa sifatida qaraladi va hozirgacha umumqabul qilingan yagona ta'rifi mavjud emas.

Diskurs tushunchasi tilshunoslik tarixida nisbatan yangi bo'lib, u matn lingvistikasi va nutq tahlilining rivojlanishi jarayonida shakllangan. Ilk bor bu atamani amerikalik tilshunos Z.Harris 1952-yilda "Discourse Analysis" maqolasida qo'llagan bo'lib, unda diskursni grammatik tuzilmalarning matn ichidagi o'zaro munosabatlarini aniqlashga xizmat qiladigan lingvistik birlik sifatida talqin qilgan.

Ushbu davrda diskurs matn bilan deyarli sinonim sifatida ishlatilgan. Z.Harris diskursni bir yoki bir nechta shaxslar tomonidan ma'lum bir vaziyatda ketma-ket aytilgan yoki yozilgan gaplar majmuasi deb ta'rifladi.

Diskurs ba'zida bir so'zli ifoda, ba'zida esa bir necha gap yoki butun matndan iborat bo'lishi mumkin, ammo asosiy e'tibor – ketma-ketlik va vaziyatga qaratiladi. Fransuz tilshunosligida diskursga bo'lgan qiziqish M.Fuko, E.Benvenist, P.Sartr kabi olimlar ishlarida falsafiy va semiotik yondashuvlar bilan boyidi.

Fransuz tilshunoslik maktabida diskurs ijtimoiy guruhlar nutqi orqali ularning dunyoqarashi, mafkurasi va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Fransuz olimi E.Benveniste esa o'zining "Umumiy tilshunoslik" nomli asarida ifoda (utterance) nazariyasini ishlab chiqdi va fransuz tilshunosligida an'anaviy qo'llaniladigan "discours" atamasini yangi ma'noda "nutq egasining tilni o'zlashtirish jarayoni" sifatida qo'lladi va "*diskurs*" so'ziga ilmiy termin sifatida ahamiyat bergan ilk tadqiqotchilardan biri bo'ldi. U mazkur atama bilan "*so'zlovchiga xoslangan nutq*" tushunchasini ifoda etgan holda "*diskurs*" (discours) va "*ifoda*" (récit) tushunchalarini bir-biriga qarshi qo'ygan. E.Benvenistning ta'kidlashicha, "diskurs abstrakt tushuncha bo'lib, nutq mahsulotini yaratish uchun zarur shart-sharoitlar va nutq ishtirokchilari tushuniladi hamda diskurs faqat matn emas, balki uning tuzilishi, ishlatilish maqsadi va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqilishi lozim". Z.Xarrisdan farqli o'laroq, E.Benveniste diskursni so'zlovchining nutqdagi o'rnini belgilovchi sifatida tushuntiradi va buni funksional yondashuv-deydi. Z.Harris diskursni muayyan vaziyat va madaniy muhitdagi nutq sifatida aniq tasvirlagan bo'lsa, E.Benveniste uning asosiga individuallik omilini ham kiritgan. E.Benvenistning fikricha, "nutq egasi va til o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ifodaning til birliklarida namoyon bo'ladi". Shuningdek, "ifoda – bu gapiruvchining akti bo'lib, tilni vosita sifatida qo'llanishidir, bu esa gapiruvchi va til o'rtasidagi munosabatlarda aks etadi".

Muxokama

Ingliz-amerika an'anasida esa (T.A. van Dijk, N.Fairclough, J.P.Gee) diskursga tanqidiy nuqtayi nazar

shakllandi. Unga ko‘ra, diskurs til orqali hokimiyatni mustahkamlash, ijtimoiy tengsizliklarni legitimlashtirish yoki ularga qarshi chiqish vositasi sifatida ishlaydi. Tanqidiy diskurs tahlili ,ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, OAV va siyosiy nutqdagi manipulyativ strategiyalarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda diskurs tushunchasi tobora ko‘proq e’tiborni tortayotgan bo‘lsa-da, uning mazmuni hali ham turlicha talqin qilinmoqda.

“Diskurs” termini, ko‘p hollarda, ko‘p ma’nolilik kasb etib, ko‘p qirrali va polisemantik xususiyatga ega. Bu holat, avvalo, diskursning nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarda ham qo‘llanishi bilan izohlanadi. Ushbu masalada terminlarning polisemiyasi(ko‘p ma’noliligi)ga oid talqinga alohida e’tibor qaratish zarur. Xususan, “Немецко-русский словарь лингвистических терминов”da bu borada ma’lum qarashlar mavjud. Lug‘at mualliflarining ta’kidlashicha, hozirgi vaqtga kelib diskursni anglashga oid ikki asosiy yondashuv shakllangan:

1. Diskurs – muayyan shart-sharoitlarda qo‘llaniladigan matn.
2. Diskurs – murakkab kommunikativ yaxlitlik.

Ba’zi olimlar uchun “*diskurs*” deyarli “*nutq*”, “*bog‘langan nutq*”, “*nutq oqimi*” kabi tushunchalarning sinonimi sifatida qaraladi. Boshqalar esa uni “*murakkab sintaktik butunlik*”, “*gap birliklaridagi yaxlitligi*” yoki “*matn*” tushunchasiga yaqinlashtiradilar.

Yana bir talqinga ko‘ra, diskurs bu – kommunikativ jihatdan yaxlit va yakunlangan nutq mahsuloti, ya’ni ma’lum kommunikativ vaziyatda vujudga kelgan va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan til hodisasi sifatida tushuniladi.

Hozirgi kunda “*dialogik diskurs*” va “*monologik diskurs*” kabi terminlar qo‘llanilmoqda. Qizig‘i shundaki, bunga yaqin-yaqingacha xato talqin sifatida qaralar edi, chunki birinchi holatda tavtologiya (dialog = diskurs) mavjud, ikkinchi holatda esa ochiq-oydin ziddiyat (diskurs ≠ dialog) kuzatiladi.

“Diskurs” atamasi lotin tilidagi *discurrere* (“aylanib yurish, muhokama qilish”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ilk davrlarda fikr yuritish, bahslashish yoki ma’lumot almashish ma’nolarini bildirgan.

“Discours” terminining ilk ma’noiy mazmuni sifatida uning fransuz tilidagi shakli qabul qilingan bo‘lib, XVIII asrda mazkur atama “dialogik nutq” ma’nosida qo‘llanilgan. Oxirgi o‘n yil ichida tilshunoslikda “diskurs” atamasi pragmatik omillar bilan shakllangan barcha nutq turlarini ifoda etish uchun qo‘llanila boshladi va o‘z navbatida, turli kommunikativ maqsadlarga ko‘ra farqlanadi. Ushbu mavhum tushunchaning differentsial xususiyatlaridan biri gumanitar fanlarning turli sohalarida qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Yu.A.Levitskiy diskurs va uning tahlil usullarining ildizlari P.Xartman, P.Vunderlix va boshqa tadqiqotchilarning (nemis lingvistik maktabi) ilmiy ishlarida, E.Sheglov va G.Zagsning (amerika lingvistik maktabi) kommunikatsiyani sotsiolingvistik tahlil qilishdagi izlanishlarida, A.Greymas va Ye.Landovskiy (fransuz poststrukturalizmi) tomonidan turli matn janrlarini logik-semiotik tasniflashda, shuningdek, nutq generatsiyasi modellarini ishlab chiqish, kommunikatsiya etnografiyasi va antropologik tadqiqotlarda namoyon bo‘lishi haqida batafsil yozgan.

Xulosa

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “Diskurs tahlili” atamasi ilk bor Z.Xarris tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u distributiv tahlil metodologiyasini takomillashtirish va uning o‘rniga bog‘langan matn tahlilini joriy etishga harakat qilgan, shuningdek, uni ijtimoiy-madaniy kontekstda tadqiq etish zarurligini ta’kidlagan. Keyinchalik bu tushuncha nemis tilidagi “textlinguistik” (matn lingvistikasi) tushunchasi bilan tenglashtirila boshlangan va 1950-yillarda ilmiy muomalaga kirib kelgan. Shu bois “diskurs” va “matn lingvistikasi” uzoq muddat davomida bir-biriga yaqin, ba’zan esa sinonim terminlar sifatida qo‘llanib kelgan. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlaridan e’tiboran “matn” va “diskurs” tushunchalarining ilmiy differentsiatsiyasi kuzatila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Schiffrin D. Approaches to Discourse / D.Schiffrin. – Oxford, Cambridge, MA: Blackwell, 1994. – 470 p.

[2] Bruner J. S. Acts of Meaning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990. – 181 p.

[3] Brown G. Discourse Analysis / Brown G. Yule. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.

[4] Dijk T. A. van. The study of discourse / T. A. van Dijk. – Text: direct // Discourse as structure and process.

[5] – London: SAGE Publications Ltd., 1997. – Vol. l. Discourse studies: a multidisciplinary introduction. – P. 1-34.

[6] Fairclough N. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research. – London: Routledge, 2003.

[7] – 270 p.

[8] Gee J. P. An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method / J.P. Gee. – 4th ed. – London: Routledge, 2014. – 248 p.

[9] Ostman J. Discourse analysis / J.Ostman, T.Virtanen. // Handbook of Pragmatics: Manual. – Amsterdam, Philadephia: John Benjamins, 1995. – P. 239-253.

[10] Shirer P. Discourse and Communication in Language Education. – London: Routledge, 2008. – 214 p.//

[11] Adam J.-M. La linguistique textuelle: Introduction à l’analyse textuelle des discours. – Paris: Armand Colin, 1999. – 254 p.

[12] Charaudeau P. Grammaire du sens et de l’expression. – Paris: Hachette, 1992. – 304 p.

[13] Maingueneau D. L’Analyse du discours: Introduction aux lectures de l’archive. – Paris: Hachette, 1991. – 215 p. // Maingueneau D. Nouvelles tendances en analyse du discours. – Paris: Hachette, 1996. – 289 p.

[14] Authier-Revuz J. Ces mots qui ne vont pas de soi: Boucles réflexives et non-coïncidences du dire. – Paris: Larousse, 1995. – 336 p.

[15] Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 136 – 137.

[16] Борботько В.Г. Элементы теории дискурса. Грозный: Изд-во Чечено-Ингушск. Ун-та, 1981. – 113 с.

[17] Карасик В.И. Языковый круг: личность, концепты, дискурс: монография. 2-е изд. / В. И. Карасик. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.